

O'ZBEKISTON SHAROITIDA ICHKI TURIZMNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI VA MANBALARI

Jomonqulova F.E. t.f.n
talaba Mirzayev B., SamISI

Turizm – bu avvalambor katta biznes, dunyo miqyosidagi gigant iqtisodiy jarayondir. Bugungi kunda turizm yuqori daromadli soha va jadal rivojlanayotganligi sababli hududiy iqtisodiyotda ushbu sohaning rivojiga katta ahamiyat berilmoqda. Jahon sayyohlik sanoatida turizmdan tushayotgan daromad avtomobil ishlab chiqarish, neft va gaz sanoatidan keyin uchinchi o'rinda turadi. Dunyoda turizm sohasida 195 million kishi – ish bilan band aholining sakkiz foizi mehnat qilmoqda. Jahon sayyohlik tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha sayyohlar oqimi yiliga 4-5 foiz o'smoqda. 2012-yilda sayyoramizda sayohat qiluvchilar bir milliarddan oshgani e'lon qilingan.¹ Shuning o'zi ham turizm sohasi iqtisodiyot uchun naqadar kerakli tarmoq ekanini bildirib turibdi. Bu o'rinda faqat xalqaro turizmni emas, balki ichki turizmni ham rivojlantirish mamlakat turizmi uchun nihoyatda muhim sanaladi va har qanday mamlakatning turistik sohadagi imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishda ichki turizmni rivojlantirish muhim o'rin tutadi. Vaholangki, avvalambor har qanday turistik mahsulotga mahalliy sayyohlarda qiziqish uyg'otibgina, keyichalik uni xorijiy sayyohlarga taqdim etish samarali yo'l ekanligi xalqaro tajribada tasdig'ini topib ulgurgan. Masalan, dunyo turizm (sayyohlik) sanoatida yetakchi o'rinni egallagan Ispaniya aholisining 90 foizi mamlakat bo'ylab sayohat qiladi.

Yurtimizda ichki turizm imkoniyatlarini targ'ib qilish, sayyohlik bazalari, dam olish zonolari, pansionatlar, sanatoriylar, kurort va ekosayyohlik tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirishga doir keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Har bir hudud uchun mo'ljallangan maxsus dasturga viloyat, tuman, shahar va qishloqlarda ichki turizmni rivojlantirishga oid tadbirlar kiritilgan. Ularda har bir hududning ichki imkoniyat va salohiyati inobatga olingan. Shuning uchun Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Shahrisabz va Marg'ilon kabi tarixiy shaharlarimizda xalqimizning boy tarixi avaylab saqlanishi va milliy hunarmandchilik markazlarining faoliyat ko'rsatayotganligi ushbu hududlarda nafaqat xalqaro, balki ichki turizmni rivojlantirishda nihoyatda muhim omildir. Xususan, Buxorodagi madaniy va tarixiy yodgorliklar, shulardan Masjidi Kalon va Chor Bakr majmualari, Bahouddin Naqshband, Abduxoliq G'ijduvoni kabi buyuk ajdodlarimizning qadamjolarini ziyorat qilish uchun ming-minglab hamyurtlarimiz ushbu viloyatga sayohat qilishadi. Tegishli muassasalar bilan birgalikda yurtimizning tarixiy qadamjolariga ichki yo'nalishlar bo'yicha maqbul narxlar asosida sayohatlar tashkillashtirilmoqda. Bu esa yurtdoshlarimizga yurtimizning boy tarixi bilan tanishishda juda qulay yordam bo'lmoqda. Bulardan tashqari, mamlakatimizning chekka hududlarida ham ichki turizmni rivojlantirish bo'yicha tashkiliy ishlar amalga oshirilmoqda. Orolbo'yida ayniqsa bu ishlar nisbatan katta miqyosda amalga oshirilmoqda. Qoraqalpog'iston Respublikasi hududidagi qadimiy qal'alar va diqqatga sazovor joylar bo'ylab uch yo'nalishda sayohatlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervati, Ustyurt kengliklaridagi sayg'oqlar yaylovi, Sudoche ko'lining saqlanib qolgan qismlariga sayohatlar uyushtirilmoqda. O'lka haqidagi boy tarixiy va madaniy yodgorliklarni o'zida mujassam etgan I.Savitskiy nomidagi san'at muzeyida to'qson mingdan ortiq eksponat mavjud. Ushbu muzeydagi eksponatlar barcha sayyohlarning e'tiborini tortmoqda.

Shunday misolni Jizzax viloyatidagi Zomin va Namangan viloyatining Chortoq tumanlarida amalga oshirilayotgan ishlarda ham ko'rish mumkin. Zominda rekreatsion – dam olish va sog'liqni tiklash maqsadlariga xizmat qiluvchi yetarlicha resurslar mavjud. Zominning tog' ekotizimi, arxeologik yodgorliklari u yerda ekologik, speologik (g'orlarga sayohat qilish), tarixiy, qishloq va sport turizmi – chang'ida uchish va yana shunga o'xshagan sayohat turlarini

¹ O'zbekiston milliy axborot agentligi, 2012.12.21

rivojlantirish imkonini beradi. Shu maqsadda, bu yerda mahalliy uylarda turistlarni qabul qilish yo'lga qo'yildi, yuqori salohiyatli transport va ovqatlantirish kompaniyalari bilan aloqa o'rnatildi, mahalliy uylarda esa mehmonlarni kutib olish uchun yetarlicha sharoitlar yaratildi. Ularda xizmat qiluvchi ishchi xodimlar malakasini oshirish uchun seminar treninglar o'tkazildi.

**Mamlakatimizga tashrif buyuruvchi turistlarning maqsadi bo'yicha taqsimlanishi
(2013 yil ma'lumotlari asosida)**

Fuqarolarning tashrifidan maqsad (kishi)						
Maishiy dam olish Kasbiy va ish-bilarmonlik Davolash va profilaktika Boshqalar Jami	O'zbekiston (mahalliy)		Yaqin xorij mamlakatlari		Uzoq xorij mamlakatlari	
	soni	ulushi. %	soni	ulushi%	soni	ulushi i%
	ming		ming		ming	
	kishi		kishi		kishi	
	131984	26.93	34766	36.94	156518	60.95
	305332	62.30	54668	58.08	94612	36.84
	7496	1.53	267	0.28	18	0.01
	45257	9.24	4421	4.70	5648	2.20
	490069	100	94122	100	256796	100

(Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, maxalliy turistlar ko'proq kasbiy va ishbilarmonlik maqsadida sayohatga chiqishadi, bu ko'rsatkich Respublikamizda 62.3 foizni tashkil qilmoqda.)

Tog'ri turizmni rivojlantirishdan asosiy maqsad har doim ham iqtisodiydir. Lekin masalaning ikkinchi tarafi – bu xalqning ma'naviyati va tarixini bilishdagi tutgan o'rnidir. Yuqorida aytib o'tilganidek ko'plab yurtdoshlarimiz ichki turizm miqyosida yurtimiz bo'ylab tarixiy va madaniy yodgorliklarga tashrif buyuradilar. Aynan mana shu vaziyatda ular o'z bilimlarini va dunyo qarashini boyitadilar. Bu esa o'z o'rnida mamlakat iqtisodiyoti qanchalik muhim bo'lsa, shunchalik muhimdir. Buning uchun yuqorida ta'kidlab o'tilgan tadbirlardan ham kengroq miqyosda ko'plab ishlarni amalga oshirishimiz kerak. Ya'nikim, mahalliy turistik marshrutlarning sonini va sifatini oshirishimiz kerak. Hali yurtdoshlarimiz bilmagan tarixiy va noyob madaniy joylarimizni ularga imkon boricha tanishtirish zarur.

Mamlakatimizda ichki turizm infratuzilmasi shakllantirilgan va mahalliy sayyohlar o'z sayyohlik faoliyatini amalga oshirmoqdalar. Bu esa mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga hissa qo'shmay qolmaydi. Bir so'z bilan aytganda, ichki turizm sohasida bizda jamiki imkoniyatlar va manbalar bor. Ulardan foydalanilmoqda ham. Lekin ulardan yanada samarali foydalanish uchun yana bir qancha ilmiy va amaliy ishlar qilinsa, ichki turizm mamlakatimiz iqtisodiyotiga sezilarli hissa qo'shishni boshlaydi.